

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jumaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	RAKETIN O. (Rossiya)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)	XOLMATOV B. (O'zbekiston)	TO'RAYEV A. (O'zbekiston)
	AYUBOV M. (O'zbekiston)	

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA			
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	KAXAROVA M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.b.f.d(PhD)	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	QORABOYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	KARIMOV E.T. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof.	ONARQULOV K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d (PhD).prof.	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d.dots.
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
QOSIMOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	XOMIDOV G'. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.	YULDASHEV G'. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.prof.
ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.prof.	DADAYEV S. (O'zbekiston)	TDP, b.f.d.prof.
MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
		SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
		SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n. dots.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar: Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari	108
M.M.Teshaboyev	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik	115

SIYOSAT

H.M.Rasulov	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	120
K.X.Avazov	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida	129
D.A.Mamajonova	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
I.A.Raximov	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni"	138

TARIH

E.G.Radjapov	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini	142
B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid	148
X.S.Jumanazarov	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
S.R.Tolibova	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida)	159
X.X.Azimov	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida)	167
K.S.Karimov	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
N.Xudoyberdiyeva	
Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi	176
F.U.Temirov	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadriddin Ayniyning publisistik faoliyati	179
M.H.Isamiddinov	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar	188
M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov	
Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar	191
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir	195
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm	200
G.V.Abdullayeva	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi	204

SIYOSAT

o'rtasida dinamik muvozanatga erishish uchun siyosiy va huquqiy vositalardan vaqtincha foydalanishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xavfsizlik tushunchasi ijtimoiy va gumanitar sohaga XX asrning boshlarida kirib keldi. Mazkur tushunchani ilmiy muomalaga ilk marotaba 1904-yilda AQSHning sobiq prezidenti T.Ruzvelt kiritgan [1].

Keyinchalik tushuncha mazmuni doirasi ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek, xilma-xil ko'rinishdagi tahdid va tahlikalarni izohlash bilan uzviy bog'liq ravishda kengayib bordi. Turli lug'atlar va ilmiy nashrlarda xavfsizlik falsafiy kategoriya sifatida ta'riflanmaydi. Shunga qaramay, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida, unga "insonning xavf ostida qolishi", deb ta'rif beriladi.

"Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlardan biri: insonga uning hayoti yoki salomatligi xavf ostida qolganda va o'zini himoya qilish imkoniyati bo'lmaganda yordam bermaslik", – deb izohlanadi [2].

Tadqiqotchi A.Volfers xavfsizlikni "orttirilgan qadriyatlarga tahdidlarning yo'qligi", – deb ta'riflagan [3].

Boshqa bir tadqiqotchi M. Malek xavfsizlikni vaqt o'tishi bilan tizimning qadriyati yoki texnik xizmat ko'rsatishi va unga tahdidlarning yo'qligi deb ta'riflagan. O'z fikrini davom ettirar ekan, u o'zining xavfsizlik ta'rifini "hech qanday tahdidlar mavjud bo'lmagan yoki mavjud tahdidlar ko'rib chiqilayotgan obyektga tahdid solmagandagi haqiqiy yoki idrok etilgan holat", – deb taklif qildi. Uning fikricha, ushbu ta'rif xavfsizlikning boshqa ta'riflariga nisbatan ikkita asosiy afzalliklarga ega:

u barcha jihatlarini qamrab oladi, shuningdek, tahlilning barcha darajalari va sohalarida "xavfsizlik" atamasining umumiy mazmuniga ishora qiladi;

xavfsizlikni tadqiq qilishning keng tushunilgan kontekstida, ayniqsa, yangi turdagi tahdidlar paydo bo'lganda, kichik maydonlarni yaratishga to'sqinlik qilmaydi [4].

Biroq, bizning fikrimizcha, tahdidlarning barcha jihatlarini va turlarini o'z ichiga olishga urinish bu ta'rifni noaniq qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada o'rganilayotgan muammoni yanada chuqurroq tahlil qilish maqsadida ilmiy tadqiqotning siyosiy va qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni ta'kidlash kerakki, xavfsizlikka an'anaviy yondashuvda asosan "harbiy muammolar" sifatida qaralgan. Bu esa o'z navbatida davlatni xavfsizlikning tayanch obyekti sifatida qo'ygan Gobbs g'oyalariga asoslangan realistik xavfsizlik konsepsiyasidir. Tomas Gobbs davridan boshlab xavfsizlik zamonaviy davlatchilik nazariyasi va amaliyotiga mustahkam kirdi.

Natijada, odamlarning xavfsizligi "Leviatan sababi" ga aylandi, bu umumiy manfaat yoki davlat deb ham ataladi. Binobarin, fuqarolar va davlat ijtimoiy shartnoma tuzish uchun birlashishi kerak edi. Bu shartnoma davlat xavfsizlikni ta'minlashi kerakligini nazarda tutgan va fuqarolar, o'z navbatida, uning hokimiyati bilan rozi bo'lgan [5]. Bundan tashqari, tinchlikning yagona yo'li — odamlarning tabiiy huquqlaridan voz kechish va oliy hokimiyatni (davlatni) o'rnatish. Endi davlat xavfsizlik himoyachisi va yetkazib beruvchisi vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda "xavfsizlik" tushunchasining ahamiyatini o'rganishda uning mohiyati va mazmunini ijtimoiy-siyosiy tahlili va siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan R.Samarov, A.Ye.Ishmuhammedov va X.S.Abulqosimov kabi olimlar tadqiqot olib borishgan.

Jumladan, falsafa fanlari doktori, professor R.S.Samarov xavfsizlikni tizim sifatida baholab, milliy xavfsizlikni, xavfsizlikning yo'nalishlarida biri sifatida ta'riflaydi: milliy xavfsizlik – jinsi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, har bir insonning hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish, moddiy, ma'naviy qadriyatlarni, ijtimoiy meyor va konstitutsiyaviy tuzum, suverenitet, mamlakatning hududiy yaxlitligi hamda ichki tahdidlardan muhofaza qilinishidir. Bu tashkiliy-institutsional sharoitlarda vujudga keladigan shartlar yig'indisidir [6].

Muallif milliy xavfsizlikni yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi va milliy xavfsizlikning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy va ekologik omillarini o'rganib chiqadi. Yana bir o'zbekistonlik olim A.Ye.Ishmuhammedov esa, "xavfsizlik judayam keng tushuncha va jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini – chegaralar xavfsizligi, mintaqada tinchlik, ekstremizm, etnik guruhlar masalasi, poraxo'rlik, jinoyatchilik darajasi va boshqalarni qamrab oladi", – deb ta'riflaydi [7].

Iqtisodchi olim X.S.Abulqosimovning fikriga ko'ra, "Xavfsizlik tushunchasi buzilgan va turlicha talqin qilinadi. Biroq, bu talqinlardagi umumiy jihat xavfsizlik inson hayotining turli sohalarida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish ekanligidir" [8].

Xavf – davlat va jamiyatning meyoriy faoliyatiga tahdid qiladigan omildir. Xavfning muhim va dolzarb shakllarini - tabiiy ofat, ijtimoiy keskinlik, inqiloblar, qo'zg'olonlar, urush va harbiy ixtiloflarni o'z ichiga oladi.

Tahdidbardosh jamiyat va barqarorlik muammosi XIX asr oxiri va XX asr boshida yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur muammo, bir qator ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq edi. Ehtimol, paydo bo'lishiga asosiy sabab sifatida Yevropa mamlakatlari aholisining misli ko'rilmagan o'sishi sabab bo'lgandir. Ushbu fikrni 1800-1914-yillar oralig'ida Yevropa aholisining soni 460 millionga yetganligi isbotlab turibdi (qiyoslash uchun, eramizning VI asridan XIX asrga qadar bu raqam 180 million kishidan ortmagan) [9].

Zamonaviy jamiyat "shaxssiz tabiat" boyliklarini, uning "kamchiliklari"ni tuzatish hisobiga rivojlanadigan jamiyat sifatida tushuniladigan sotsiotsentristik model nuqtayi nazaridan rivojlanadi va mavjud bo'ladi" [10].

Nemis faylasuf-ekzistensialisti K. Yaspers yozganidek, "Bugungi dunyo, XVI asrdan boshlangan uzoq jarayon natijasida texnika rivoji samarasi o'laroq, amalda yagona muloqot sohasiga aylandi" [11].

Hozirgi kunda xavfsizlikning yangi o'lchovi shakllanmoqda, bu siyosiy tahdidlar va xavf-xatarlar ma'lum darajada siyosiy jarayonda safarbarlik rolini o'ynaydi degan tushunchaga asoslanadi. Bugungi kunda sayyoramizning alohida bir qismida (biror bir mamlakat yoki mintaqada) sodir bo'layotgan jarayonlar muqarrar ravishda butun dunyoga global ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa yangi muammolar va tahdidlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

O'z navbatida ushbu masala zamonaviy davlat jamiyatning uzoq muddatli strategik barqarorligi va xavfsizligini faqat barqaror rivojlanish yo'li bilan ta'minlashi mumkin, bu esa davlatning ichki va tashqi tahdidlar va xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilish va ularning oldini olish qobiliyatiga asoslangan xavfsiz rivojlanishning sinonimidir. Jamiyat tahdidbardoshligi muammosi barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'liga o'tishda asosiy va fundamental muammo bo'lib maydonga chiqadi. Bu jarayon siyosiy tizimning xavfsiz o'zini-o'zi rivojlantirish chegaralarini belgilash, potensial xavfi yuqori bo'lgan tahdidlarning real tahdidlarga aylanish bosqichida jamiyat tahdidbardoshligini ta'minlash bo'yicha siyosiy va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni anglatadi.

Xavfsizlik – barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, uning natijasi sifatida uning zaruriyatini tashkil etadi hamda davlat va jamiyat barqarorligini oshiradi. Xavfsizlik - jamiyatning to'liq ishlashiga yordam beradi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida ta'minlangan xavfsizlik jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida mamlakatimiz va jamiyatimiz xavfsizligini ta'minlashda tahdidbardosh jamiyatning nazariy-metodologik muammolari ilmiy tahlil qilinib, tahdidbardoshlikni o'rganish bo'yicha nazariy yondashuvlar ko'rib chiqildi. Shu bilan birga ushbu tushuncha transformatsiyasi o'rganiladi.

Xavfsizlik, barqaror taraqqiyot atamaları falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot nazariyasi va xalqaro munosabatlar nazariyasi fanlarida o'rganiladigan yondosh tushunchalar tahlili orqali tahdidbardosh jamiyatni o'rganishning turli darajalari ko'rib chiqiladi. Hozirgi davrda muayan davlat, xalq, millatning mavjudligiga, xavfsizligi, barqarorligi hamda istiqboliga rahna soluvchi yangi xavf-xatarlar, tahdidlar tizimini anglash, sezish, idrok etishning yuksak darajasiga erishishga borib taqalmoqda.

Abu Nasr Forobiyning "Davlatni aql-idrok bilan boshqarish xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir", – degan fikrlarining mazmun-mohiyati ham aynan yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi [12].

Real voqelik sharoiti - jamiyat hayotining turli sohalarida, shuningdek, xavfsizlik obyektlari o'zaro ta'sirlashuvi sohasida qarama-qarshiliklarning mavjud bo'lishi va yuzaga chiqishi muhiti hisoblanadi. Jamiyat hayotiy faoliyati jarayonidagi qarama-qarshi ziddiyatlar ijtimoiy tahdidlarni keltirib chiqaradi va ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining manfaatlari to'qnashuvi hamda qarama-qarshiligi hosilasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, "manfaatlarga tahdidning manbalari – manfaatlarning o'zida yotadi" [13].

Tahdid tushunchasi rasmiy meyoriy hujjatlarda, ilmiy adabiyotlarda ham keng qo'llaniladi. Insonning ongida tahdid odatda biror bir obyektga zarar yetkazish bilan bog'liq. Biroq, bunday oddiy izohga qaramay, ilmiy hamjamiyat "tahdid" toifasining mohiyati va mazmuni to'g'risidagi

SIYOSAT

munozarani to'xtatmaydi. Shu munosabat bilan ushbu konsepsiyaning mohiyatini va uning milliy xavfsizlik nazariyasida tutgan o'rnini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining "Xavfsizlik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "tahdid" atamasining quyidagi ta'rif berilgan: "Xavfsizlikka tahdid - bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga tahdid soladigan vaziyatlar va omillarning yig'indisidir" [14]. Ushbu ta'rifda "xavf", "vaziyat", "omil" tushunchalari asosiy o'rinni egallaydi. "Vaziyatga boshqa narsa bog'liq bo'ladi. Ko'p jihatdan vaziyatlar hodisaga nisbatan tashqi narsa sifatida qaraladi hamda tashqi va ichki omillarni o'z ichiga olgan sabab tushunchasidan farqlanadi" [15].

Omil deganda uning mohiyatini yaxlit yoki individual xususiyatlarini belgilaydigan harakatlantiruvchi kuch, hodisa yoki jarayon tushuniladi. "Xavf" atamasining ma'nosi har qanday zarar, baxtsizlik, ya'ni, har qanday baxtsizlik, zarar ehtimolligini anglatadi.

Tahdidning ta'rifini boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, unda xavfsizlikka tahdid bu "xavfli vaziyatlar va omillar (shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlariga) birligidir". Boshqa me'yoriy hujjatlarda esa, xavfning ta'rif aksincha, tahdid tushunchasi orqali tushuniladi: "Favqulodda vaziyatda xavf - bu favqulodda vaziyat hududida xavfli omillar va favqulodda vaziyat manbalarining aholiga, xalq xo'jaligiga va atrof-muhitga ta'siri tahdidi ehtimoli yoki paydo bo'lishi holati". [16]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, "tahdid" kategoriyasi milliy xavfsizlik nazariyasida eng asosiy tushunchalaridan biridir.

Siyosiy fanlar doktori, professor Shukritdin Paxrutdinovning ta'kidlashicha, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amaliy harakatlar milliy xavfsizlik tizimidan tahdidlarni aniqlash va ularga o'z vaqtida javob berishni talab qiladi.

Tahdidlarning tabiati va xususiyatlari ularni bartaraf etish hamda xalq qilishning asosiy yo'nalishlari, tadqiqotchining fikriga ko'ra, "mavjud cheklangan manbalardan oqilona foydalangan holda, milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shakllari, usullari, vositalari va uslublarini belgilab beradi" [17].

Boshqa mahalliy tadqiqotchilar, masalan, S.Otamurodov tahdid tushunchasini tahlil qilib, "tahdid - turg'unlik holatidagi xavf" degan xulosaga kelganlar. "Xavf esa, tahdid amaliyotiga aylanadi" [18].

Shunday qilib, "tahdid" toifasining tabiati va mazmunini tahlil qilishdan olingan xulosalarimiz davlat milliy xavfsizlik tizimiga bo'lgan ishonchni alohida muhrlab qo'yadi va buning uchun javobgarlarga alohida talablar qo'yadi.

XULOSA

Davlat va jamiyatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash masalalarida jamiyat a'zolarining tahdidlarga samarali qarshilik ko'rsatish salohiyatini shakllantirish, mamlakat mustaqilligini saqlash va yuksaltirish qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinki, jamiyat ichki xavfsizlikni ta'minlaydi, ammo beqarorlashtiruvchi omillar (masalan, xalqaro darajadagi noqulay vaziyatlar) tashqi tomondan ishlay boshlasa, bu ularning ta'siri ostida ichki xavfsizlik samaradorligi sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Bugungi kunda har bir davlat "tahdidbardoshlik"ka nisbatan o'z strategiyasiga ega. Chunki bunga ta'sir etuvchi omillar mavjudki, ular barcha mamlakatlar uchun alohida ahamiyatga ega. Bularga mamlakatning geografik joylashuvi, rivojlanganlik darajasi, aholining demografik holati, boshqaruv tizimi, legitimlik va boshqa o'ziga hos xususiyatlarni keltirish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda tahdidbardosh jamiyatga quyidagicha ta'rifni berishimiz mumkin: Tahdidbardosh jamiyat – bu davlatning har qanday ichki va tashqi tahdidlariga munosib javob beradigan, mamlakatning tinchligi va barqaror taraqqiyotini samarali ta'minlashga qodir bo'lgan tizimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Общая теория национальной безопасности // Под общ. ред. А.А.Прохожева. – М.: Изд.ПАГС, 2005. – С. 344.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 355 b.
3. Wolfers A. "National Security" as an Ambiguous Symbol // Political Science Quarterly.1952. Vol.67. – P. 483.
4. Malec M. Security Perception: Within and Beyond the Traditional Approach. Thesis. 2003.
5. Luckam R. The Discordant Voices of Security // Development in Practice. 2007. Vol.7. No.4.
6. Samarov R.S. Xavfsizlikning metodologik asoslari. -T.: «Akademiya», 2010.– 14 b.

7. Ishmuxamedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2004. – 18 b.
8. Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent.: Akademiya, 2006. – 23 b.
9. Капица С. Рост населения земли и его математическая модель// Наука и жизнь. -1997. - №3, – стр. 86.
10. Кашин Д.О. Социокультурные факторы устойчивости общества: автореф. дис. канд. филос. наук. – Томск, 1999.
11. Ясперс К. Смысл и назначение истории. – М.: Республика, 1994. – 527 с.
12. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1993. – B. 60.
13. Прохожев А.А. (ред) Общая теория национальной безопасности.: Учебник. — Коллектив авторов. — 2-е изд. — М.: Изд-во РАГС, 2005. — 344 с.
14. Федеральный закон РФ «О безопасности» от 28. 12. 2010, № 390-ФЗ (ред. от 05.10.2015).
15. С.А.Лысенко Теория управления безопасностью социальных систем (организаций). Киев ДП «Издательский дом «Персонал» 2014.
16. Федеральный закон РФ «О безопасности» от 28.12.2010, № 390-ФЗ (ред. от 05.10.2015).
17. Пахрутдинов Ш. И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества // Конфликтология. – 2016. – № 4. – С. 67-83.
18. S.Otamurodov Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik: Toshkent, O'zbekiston 2015 yil, 196-197 b.
19. Гоббс Т. Левиафан или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. –М.: Гос.соц.-экон. изд-во, 1936. – 503 с.
20. Локк Дж. Сочинения в трех томах: Т. 3. – М.: Мысль, 1988. – 668 с.
21. Гегель Г.-Ф.-В. Философия права. – М.: Мысль, 1990. – 524 с.
22. Грицанов А. Новейший философский словарь. Сост.– Минск, 1999. – С. 157.
23. Кокунов К.А. Вызовы и угрозы национальной безопасности России в условиях глобализации: Дисс. на соиск. уч.степ. канд. полит. наук. – М.: Акад. МИД РФ, 2009. – С.15.